

O'zbekiston Respublikasida meros masalasi

Sadullayeva Farida Farxod qizi

Termiz Davlat Universiteti

Yuridik Fakulteti 2-kurs talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada meros ishlari bo'yicha qonunchilikda hal etilishi kerak bo'lgan holatlar bayon etilgan hamda ushbu holatlarni hal etish borasida takliflar berilgan.*

Kalit so'zlar: *meros, vasiyatnoma, kreditor, qarzdor, solidar.*

Вопрос наследия в Республике Узбекистан

Аннотация: *В этой статье изложены обстоятельства, которые должны быть разрешены законодательством в отношении наследственных дел, а также даны предложения по разрешению этих дел.*

Ключевые слова: *наследство, завещание, кредитор, должник, солидарные.*

The issue of inheritance in the Republic of Uzbekistan

Abstract: *This article describes the circumstances that should be resolved in the legislation on inheritance cases and offers proposals for the resolution of these cases.*

Keywords: *Inheritance, will, creditor, debtor, solidarity.*

Hammamizga ma'lumki fuqarolik ishlarida meros masalasi har doim murakkab bo'lib kelgan. Vorislar o'rtasida merosning egallanishi ikki xil shaklda amalga oshiriladi:

Birinchisi, vasiyatnoma bo'yicha vorislik;

Ikkinchisi, vasiyatnoma mavjud bo'lmagan holatda, qonun bo'yicha vorislik.

Vasiyatnoma yozma shaklda tuzilishi kerakligi belgilangan.¹ Yozma shaklda tuzilganidan keyin u meros qoldiruvchi tomonidan imzolanishi kerak. “Agar meros qoldiruvchining ko'zi ojiz bo'lsa u holda u qanday qilib vasiyatnomaga imzo chekadi”- degan savol tug'ilishi tabiiy. Ushbu holatda notarius meros qoldiruvchi vasiyatnomani shaxsan o'zi imzolay olmagan sababini ko'rsatgan holda, vasiyatnomani boshqa shaxsga imzolatishi mumkin. Ammo Fuqarolik Kodeksi 1124 – moddasi 5-qismida, vasiyat qoldiruvchi o'rniga imzo qo'yishi mumkinmas bo'lgan shaxslar doirasi keltirilgan bo'lib, ular quyidagilar:

- Notarius yoki vasiyatnoma tasdiqlovchi boshqa shaxslar;
- Vasiyatnoma kimni foydasiga tuzilgan yoki vasiyat majburiyati kimga yuklatilgan bo'lsa o'sha shaxs, uning xotini(eri), bolalari, ota-onasi, nevaralari, chevaralari va qonun bo'yicha merosxo'rlar;
- To'liq muomala layoqatiga ega bo'lmagan fuqarolar;
- Savodsizlar va vasiyatnomani o'qiy olmaydigan boshqa shaxslar;
- Yolg'on guvohlik berganlik uchun muqaddam sudlanganlar.

Qonunchiligimizda yana bir holat mavjud, ya'ni meros qoldiruvchi vasiyatnoma yozib ketgan taqdirda ham uning mehnatga qobiliyatsiz eri(xotini), ota-onasi, meros qoldiruvchini farzandlikka olganlar, voyaga yetmagan bolalari, mehnatga qobiliyatsiz bolalari, shuningden farzandlikka olgan bolalari, vasiyatnomada qanday holat bayon qilinganidan qat'iy nazar o'zlariga qonun bo'yicha tegadigan mol-mulk qiymatining kamida yarmini oladilar. Bu fuqarolik qonunchiligida majburiy ulush olish huquqi deb belgilangan. Ya'ni, vasiyatnoma bo'yicha meros qoldiruvchining barcha mol-mulkiga voris belgilangan taqdirda ham, vorisga barcha mol-mulk o'tmas ekan. Ushbu holat Fuqarolik Kodeksi 1142-moddasida belgilangan. Menimcha ushbu holatda meros qoldiruvchi meros qoldirayotgan paytda unga tegishli mol-mulk qiymati

¹ O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi 1124-moddaasi 1-qismi.

doirasida mehnatga qobiliyatsiz eri(xotini), ota-onasi, meros qoldiruvchini farzandlikka olganlar, voyaga yetmagan bolalari, mehnatga qobiliyatsiz bolalari, shuningden farzandlikka olgan bolalariga tegishi kerak bo'lgan ulushni vasiyatnomaga kiritmasligi kerak. Meros qoldiruvchi vafotidan keyin vasiyatnoma bo'yicha voris o'ziga tegishli mulkni olsa, qolgan mol-mulk mehnatga qobiliyatsiz eri(xotini), ota-onasi, meros qoldiruvchini farzandlikka olganlar, voyaga yetmagan bolalari, mehnatga qobiliyatsiz bolalari, shuningden farzandlikka olgan bolalariga meros qonun bo'yicha bo'lib beriladi.

Bundan tashqari qonunchiligimizning 1156-moddasini o'zgartirish kerak deb o'ylayman. Kreditorlar vafot etgan meros qoldiruvchining majburiyatlaridan kelib chiqadigan talablarni, meros qoldiruvchining vorislariga yoki merosni boshqaruvchiga qo'yishga haqli. Ya'ni hozirda ushbu moddada meros vorislar o'rtasida taqsimlanganidan keyin, har bir voris o'ziga tekkan mol-mulk qiymati doirasida kreditor oldida solidar qarzdor sifatida javobgar bo'ladi.

Mening fikrimcha ana shu javobgarlikni meros taqsimlanganidan keyin emas, balki meros ishi ochilib, meros vorislar o'rtasida taaqsimlanmasidan oldin kreditorlar talabi qondirilishi kerak va undan keyin qolgan mol-mulk vorislar o'rtasida taqsimlanishi kerak. Kreditot talabi bo'yicha ishni sudda ko'rish jarayonida vorislarni jalb etishda hamma vorislar hozir bo'lmasligi va natijada ish uzaytirilishi mumkin. Agar yuqoridagi taklif qonunchilikka kiritilsa, kreditorlar talabi qisqa muddatda fuqarolik sudlarida vorislar ishtirokisiz hal etiladi. Bu ham vaqtni tejaydi, ham kreditorning moddiy yetishmovchilik sababli kelgusi ishlari to'xtab qolishining oldini oladi.

Ko'pchilikda merosni kelishib taqsimlash mumkinmi degan savol tug'iladi? Ushbu holatga qonunchiligimizda ruxsat berilmagan. Agar merosxo'rlar aka va uka bo'lsa, aka ukasining foydasiga o'ziga tegishli mol-mulkning bir qismini berish istagini bildirishi mumkin. Lekin Fuqarolik Kodeksi 1148-moddasi 4-qismiga muvofiq merosning bir qismidan voz

kechishga yo'l qo'yilmaydi. Ammo aka ukasining foydasiga merosdan voz kechishi mumkin va bunda aka keyinchalik merosni qaytarib ololmaydi.²

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, meros masalasi bo'yicha hal qilinishi kerak bo'lgan masalalar juda ko'p. Fuqarolik Kodeksidagi meros masalalari belgilangan ayrim moddalarga o'zgartirish kiritish kerak deb o'ylayman. Ya'ni moddalar fuqarolarga masalalarni ortiqcha xarajatlarsiz, qisqa muddatga hal qilinadigan qilib o'zgartirilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi.

² O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi 1147-moddasi 4-qismi.